

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

MAMADALIYEV QODIRJON QOBULJONOVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Mamadaliyev Qodirjon Qobuljonovich

Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....3

Мамадалиев Кодиржон Кобулжонович

Пути совершенствования системы финансирования деятельности
агрокластеров.....27

Mamadaliyev Qodirjon Qobuljonovich

Ways to Improve the financing system for agroclusters activities.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

MAMADALIYEV QODIRJON QOBULJONOVICH

**AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2439 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobulov Xotamjon Abdulkarimovich
iqtisod fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimjonov Odil Olimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kun soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur shox ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks (99871) 234-46-26) e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur shox ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks (99871) 234-46-26 e-mail: kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.N. Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga o'sib borayotgan ehtiyojlarni samarali qondirishda agroklastarlarni tashkil etish va ularning moliyaviy ta'minoti masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari qishloq xo'jaligi tarmog'ida agroklastarlar faoliyatini keng qo'llanilishi, sohaga investitsiyalarni kirib kelishi va innovatsiyalarni joriy etilishini tezlashtirmoqda. Shu bois, nafaqat hozirgi sharoitda, balki istiqbolda ham agroklastarlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va uning samarali mexanizmlarini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa agroklastarlar faoliyatini moliyalashtirish tizimining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Jahon amaliyotida agroklastarlar faoliyatini moliyalashtirish tizimining uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda agroklastarlar faoliyatini moliyalashtirishning noan'anaviy (muqobil) shakllaridan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini, ulardan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyatini, agroklastar faoliyatini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ulardagi moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish orqali agroklastar tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarining kapitalizatsiyalashuv darajasini oshirish hisobiga moliyaviy barqarorligini ta'minlash kabilarga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, iqtisodiy adabiyotda agroklastar faoliyatini moliyalashtirish tizimining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligini klasterlashtirish orqali hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar inobatga olib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko'proq ahamiyat bermoqdamiz"¹. Ushbu holat mamlakatimiz qishloq xo'jaligining rivojlanish salohiyatidan samarali foydalanishda agroklastarlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga ustuvorlik qaratilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son [farmoni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi PQ-23-sonli "Paxta xomashyosini yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113 sonli "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi hodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigi. 15.12.2020. <https://www.navoiyet.uz/tashkilot-haqida/yangiliklar/566-Ozbekiston-1179ishlo1179-xo-jaligi-hodimlariga.html>.

qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda PF-205-sonli "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-sentyabrda "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 744-sonli qarori mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning eng muhim ustuvor yo'nalishlari hamda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo'mitasining fundamental tadqiqotlar Davlat ilmiy-texnik dasturi yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligida klaster tizimining ahamiyati, roli va zaruriyati bir qator iqtisodchi-olimlar tomonidan, xususan agrar sohada klaster faoliyatini tashil etish va uni moliyalashtirish xorijiy olimlar M.Porter, Ye.Leamer, J.Toleno, E.Dahmen, V.Feldman, D.Audretsch, L.Mattsson², G.Savitskaya, I.Minokov, V.Kandus³, Ha Jung Chang, Yeva Galves-Nogales⁴, R.Xasanov⁵ tomonidan o'rganilgan.

O'zbek olimlari A.Qodirov, A.Abdug'aniyev, T.Malikov, O.Olimjonov, Q.Hamdamiyov, X.Qobulov, B.Salimov, A.Ismoilov, O.Murtazoyev, B.Ishniyazov, R.Obidov, I.Erkinxojiev⁶, Z.Hakimov, N.Karimova, A.Abdulloyev va boshqalar

²M.Портер Международная конкуренция: /Пер. сангл. / Подред. Испредисловием В.Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с. , Leamer E.E. Sources of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge, MIT Press, 1984. ,Toleno J.A. Propjs des Filires Industrielles. - Revue d'Economie Industrielle. - V. 6.-1978. - . № 4. - P. 149-158; Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Annales des Mines, Janvier 1989. - P. 21-28. ,Dahmen E. Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry, 1919-1939. - Stockholm, 1950; Mattsson L. G. Management of Strategic Change in a "Markets-as-Networks" Perspective. In the Management of Strategic Change/ Ed. by Fndrew M. Pettigrew. - Oxford, N. Y., 1987. , Feldman V. P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competition-European Economic Review. - 1999. - № 43. - P. 409-429.

³И.Минаков Экономика сельскохозяйственного предприятия. Учебник. - М.: Колос,2004, - 314 стр. Г.В. Савитская Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2003. - 284 стр. Кандиус В.А. Экономика агропромышленного комплекса. Учебное пособие. -М.:Кнорус, 2010. - 544 стр.

⁴Eva Galves-Nogales. Agroklasterga asoslangan rivojlanayotgan davlatlar: globallashtirish iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lib qolish. Food and agriculture organization of the united nations Rome, 2010 10- bet. Ha Jung Chang. Iqtisodiyot qanday tuzilgan. T. 2022 y 54-bet

⁵Р.Х.Хасанов Синергетический эффект кластера.// Проблемы современной экономики. - 2009.- №3(31) - S. 29-32

⁶ A. A. Abdug'aniyev Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T. 2010. 283 bet; Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subektlar moliyasi. O'quv qo'llanma.T.2023y.; O.O.Olimjonov Evaluation of the Possible Integration of Uzbekistan into the EAEU with Reference to the Country's Joining the WTO. EJBMR, European Journal of Business and Management Research Vol. 5, No. 5, October 2020. 3-bet. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi. Darslik. - T.: 2019; A.Ismoilov., O.Murtazoev. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. (darslik) Samarqand.: 2005 y.; Q.S.Hamdamiyov Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish. Darslik. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi nashriyoti, 2004. - 191 bet; X.A. Qobulov O'zbekiston Respublikasida innovatsion hududiy klasterlarni shakllantirishning zarurligi va muvaffaqiyatli rivojlantirish omillari. //Ta'lim, fan va innovatsiya . 2019/1-son. 70-bet; I.I.Erkinxojiev Agrar sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish. Avtoreferati. Toshkent 2023 y.;

ham qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar⁷.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari mavzusi juda kam o'rganilgan.

Umuman, agroklastlar faoliyatini tashkil etish va ularni samarali boshqarishga oid ko'plab ishlarning mavjudligiga qaramay, agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish muammolarini o'rganish, ular transformatsiyasining mazmuni, faoliyat mexanizmi, agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo'llari kam o'rganilgan masalalardandir.

Agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini isloh qilish va moliyalashtirishning samarali modellarini yaratishni qamrab oluvchi bir qator konseptual qoidalar munozarali bo'lib, ilmiy tushunishni, shuningdek, moliyalashtirish bazasi va manbalarini shakllantirish va baholash hamda moliyalashtirishning samarali muqobil va istiqbolli imkoniyatlarini qidirib topish muammosiga oydinlik kiritishni talab qiladi. Agroklastlar faoliyatini moliyalashtirishning samarali mexanizmi barqaror amal qilishi tartibini ishlab chiqish amaliyot ehtiyojlaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda.

Ushbu ilmiy ishlarda iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashtirish sharoitidagi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqboldagi vazifalarini hisobga olgan holda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini samarali shakllantirish yo'llarini tizimli tarzda tadqiq etish va uning diqqat markazida agroklastlar faoliyati moliyaviy ta'minotining muhim asosi bo'lmish "davlatning agroklastlar orqali o'z oldiga qo'ygan iqtisodiy maqsadlari va agroklastlar moliyaviy ta'minotining samarali mexanizmi amal qilishi" mutanosibligini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini yaratish masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur "Agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llari" ilmiy ish mavzusi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, institut ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'llariga doir ilmiy-uslubiy hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

⁷ Z.A.Hakimov "To'qimachilik klasterlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023 y.; B.N.Ishniyazov Qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirishning innovatsion usullarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent. 2024 y.; R.R.Obidov Klaster tizimida harajatlar hisobini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent. 2021 y.; N.S.Karimova O'zbekistonda klasterlar faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy asoslari. Avtoreferat. Toshkent.2024 y.; A.J. Abdulloev Agroklastlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.2024 y.

qishloq xo'jaligidagi institutsional islohotlar sharoitida agroklastlar faoliyatining zarurligi, vazifalari va moliyaviy asoslarini o'rganish;

agroklastlar faoliyatini moliyalashtirishning manbalari, omillari va tamoyillarini tadqiq etish;

agroklastlar faoliyatini moliyalashtirishning samarali tadbirlariga oid xorij tajribalarini yoritish;

O'zbekistonda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotining rivojlanish qonuniyatlari, muammolari va ularni hal qilishga oid davlat tadbirlari tahlilini amalga oshirish hamda xulosalar shakllantirish;

agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini samaradorligini baholash uslubiyatini tadqiq qilish;

agroklastlar faoliyatini moliyalashtirishni prognozlashtirish asosida optimallashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash;

O'zbekistonda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yo'nalishlariga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistondagi agroklastlar, xususan Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasteri olingan.

Tadqiqotning predmeti agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish jarayoni bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy ekonometrik va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini quyidagilarda ifodalash mumkin:

fyuchers shartnomalari asosida paxta xom ashyosini yetishtirish va yig'im-terimi uchun agroklastlarni davlat maxsus jamg'armasi hisobidan qisqa muddatli, tegishli shartlardagi kredit asosida moliyalashtirish tartibi taklif etilgan;

agroklastlarning innovatsion rivojlanish strategiyasidagi ishtiroki vazifalari samarali ijrosini ta'minlash maqsadida xususiy ishlanma va tadqiqotlar loyihalarini joriy etilgan maxsus qo'llab-quvvatlash jamg'armalari (co-finance)ning faol ishtirokida davlat va mahalliy byudjet (35 foiz), "qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash" fondi (35 foiz), qishloq xo'jaligi subyektlarining o'z mablag'lari (30 foiz) hisobidan kompleks moliyalashtirish taklif etilgan;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish va bekor qilish orqali qishloq xo'jaligidagi qo'shilgan qiymat zanjirining o'sish sur'ati bo'yicha 2024-2027 yillarga mo'ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlaridan agroklastlar faoliyatida foydalanish taklif etilgan;

agroklastlar ishtirokchilari faoliyatini moliyalashtirishning davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanishdagi muhim mezon sifatida yer resurslaridan foydalanish holati va ekologik amaliyot zarur shartlari(GAEP)ga ustuvorlik berish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

agroklastlar faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish asoslab berildi va ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari taklif qilingan;

agroklasterlar faoliyatini moliyalashda noan'anaviy (muqobil) moliyalash mexanizmlari (kraudfanding, xususiy investor va venchur kapital)ni rivojlantirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda agroklasterlardan samarali foydalanish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida davlat subsidiyasi berish tartiblarini takomillashtirish taklif qilingan;

mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashda va iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligini istiqbolda rivojlantirishda agroklasterlarni moliyalashtirishni samarali tashkil etish yo'nalishlari o'rganib chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umume'tirof etilganligi va maqsadga muvofiqligi normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, qishloq xo'jaligida agroklasterlarni moliyalashtirishga doir ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasteri moliyaviy hisobotlaridan olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida olingan natijalar ilmiy ahamiyati kelgusida qishloq xo'jaligida agroklasterlar faoliyatini davlat, tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish, agroklasterlarning o'z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalari agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini yanada samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

fyuchers shartnomalari asosida paxta xom ashyosini yetishtirish va yig'im-terimi uchun agroklasterlarni davlat maxsus jamg'armasi hisobidan qisqa muddatli, tegishli shartlardagi kredit asosida moliyalashtirishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-205-sonli Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-maydagi 05/04-04-222-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi natijasida 2025-yil hosildan boshlab agroklasterlarga paxta xom ashyosini yetishtirish va yig'im-terimi uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit resurslari hisobidan har yili 720 mlrd so'm mablag' imtiyozli shartlarda ajratilishi belgilandi;

agroklasterlarning innovatsion rivojlanish strategiyasidagi ishtiroki vazifalari samarali ijrosini ta'minlash maqsadida xususiy ishlanma va tadqiqotlar loyihalarini joriy etilgan maxsus qo'llab-quvvatlash jamg'armalari (co-finance)ning faol ishtirokida davlat va mahalliy byudjet (35 foiz), "qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash" fondi (35 foiz), qishloq xo'jaligi subyektlarining o'z mablag'lari (30 foiz) hisobidan kompleks moliyalashtirishga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165 sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston

Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi 4.2-bandining 11-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-maydagi 05/04-04-222-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-2024 yillar yakuni bo'yicha mamlakatimiz agroklastlarida innovatsion loyihalarda 1,3 trln.so'mlik mablag' o'zlashtirilganligi bois zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlari 3,1 foizga oshdi, foydalanilayotgan ekin maydonlari unumdorligining 4,3 foiz o'sishiga erishildi, degradatsiyaga uchragan qishloq xo'jaligi yerlari 3,5 foizining holatini yaxshilash va ularning zararlanishini oldini olishga erishildi;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish va bekor qilish orqali qishloq xo'jaligidagi qo'shilgan qiymat zanjirining o'sish sur'ati bo'yicha 2024-2027 yillarga mo'ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlaridan agroklastlar faoliyatida foydalanishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-205-sonli Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-maydagi 05/04-04-222-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yildan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari QQS to'lashi lozim bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydoni ellik gektardan yigirma besh gektargacha pasaytirilishi hisobiga bu guruh soliq to'lovchilari soni 27,2 foizga oshdi va soliq bazasi 21,8 foizga kengaydi, eksportchilar uchun QQSdan imtiyozning oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o'z vaqtida ta'minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi bo'lmagan intizomli soliq to'lovchilargagina tatbiq etilishi tartibi hisobiga soliq to'lovchilari soni 3,4 foizga oshdi va soliq bazasi 6,5 foizga kengaydi, qishloq xo'jaligida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat zanjirida agroklasterning ishtirokini o'rta hisobda 5,3 foizga oshirishga erishilgan;

agroklastlar ishtirokchilari faoliyatini moliyalashtirishning davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanishdagi muhim mezon sifatida yer resurslaridan foydalanish holati va ekologik amaliyot zarur shartlari(GAEP)ga ustuvorlik berishga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son [Farmon](#)ida inobatga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-maydagi 05/04-04-222-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi natijasida 2024-yil natijalariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik asosida agroklastlar ishtirokchilari bo'lmish qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar soni 6,3 foizga oshgan, agroklastlar ishtirokchilaridan davlat-xususiy sheriklik asosida yerdan foydalanuvchilar soni 11,1 foizga oshgan, ulardagi yer resurslaridan foydalanish samaradorligi 4,1 foizga oshgan, ekologik rivojlanish dasturi vazifalari ijrosiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan 2 respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shu jumladan 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 22 ta jadval, 9 ta rasmlarni o'z ichiga olgan holda 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishning ilmiy-nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari”** nomli birinchi bobida qishloq xo'jaligidagi institutsional islohotlar sharoitida agroklasterlar faoliyatining zarurligi, vazifalari va moliyaviy asoslari, agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishning manbalari, omillari va tamoyillari, agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishning samarali tadbirlariga oid xorij tajribalari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishda quyidagi manbalardan foydalaniladi: agroklaster ta'sischi'lari mablag'lari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, tijorat banklari kreditlar resurslari, jalb qilingan mablag'lar (grantlar, maqsadli jamg'armalar), boshqa ko'rinishdagi resurslar.

Faoliyat turining kengayishi, agroklasterlar tashqi bozordagi ulushining ortishi natijasida ularni moliyalashtirish manbalari ko'lami yanada kengayib boradi.

Agroklasterlarni moliyalashtirish bir-biriga bog'langan va ketma-ketlikda amalga oshiriladigan 3 bosqichda amalga oshiriladi:

agroklasterning eng asosiy xomashyo bilan ta'minlovchi fermer xo'jaliklari xo'jalik faoliyatini tashkil etishni mablag'lar bilan ta'minlash. Bu yerda klasterga a'zo fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini agrotexnologiyasi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash va resurslar bilan ta'minlash ko'zda tutiladi;

qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash jarayonidagi xo'jalik faoliyatlarini mablag' bilan ta'minlash. Agroklasterning fermer xo'jaliklaridan yig'ishtirilgan hosilni birlamchi qayta ishlash, saqlash va qadoqlash (agar shu holda bozorga

chiqarish kerak bo'lsa) faoliyatini xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash ko'zda tutiladi;

agroklaster faoliyatini brendiga aylangan mahsulotni ishlab chiqarilishi va bozorlarga tayyor mahsulot sifatida taqdim etilgunigacha bo'lgan xo'jalik faoliyatlarni mablag' bilan ta'minlash.

Agroklaster faoliyatini moliyalashtirish jarayonida moliyalashtirish manbalari yana ikki turga bo'linadi: ichki manbalar va tashqi manbalar.

Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishning ichki manbalari bo'lib, klasterning taqsimlanmagan foydasi, amortizatsiya ajratmalari va o'ziga tegishli bo'lgan boshqa resurslar tashkil etadi.

Agroklasterlar faoliyatni moliyalashtirishning tashqi manbalariga chetdan jalb qilingan qaytariladigan (kreditlar va boshqa qarz mablag'lari) va qaytarilmaydigan (grantlar, subsidiyalar va boshqalar) resurslar tashkil etadi.

Shunday qilib, "agroklaster faoliyatini moliyalashtirish" tushunchasining mazmunini tizimli tarzda idrok etish uning elementlarini yahlit va uzviy bog'liq tarzda olib qarashni talab etadi (1-jadval).

1-jadval

Agroklaster faoliyatini moliyalashtirish tizimining tarkibiy elementlari⁸


Asosiy tushunchalar	Asosiy tushunchalar mazmuni
Zaruriyati	Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda davlatning rolini kamaytirish va bu sohani eng daromadlik tarmoqqa aylantirish
Maqsadi	Agroklaster faoliyatini iqtisodiyotda kengaytirish orqali iqtisodiy sog'lom raqobatni qishloq xo'jalik tarmog'iga kiritish, monopoliyani cheklash,
Vazifalari	Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishdagi tartibga solish faoliyatlari
Tamoyillari	Agroklaster faoliyatini tartibga solish borasidagi asosiy qoidalar
Obyektlari	Agroklasterlar moliyalashtirilayotganda e'tibor qaratiladigan asosiy vositalar, aylanma mablag'lar.
Subyektlari	Agroklasterlarning turlari va shakllari. Ularni tuzishda davlat manfaatlariga mos yondashuv
Shakllari	Davlat tomonidan agroklasterlarga ta'sir ko'rsatish darajasi
Mexanizmlari	Davlat tomonidan agroklasterlar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan agrar siyosatni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan turli dastaklar yig'indisi
Dastaklari (regulyatorlari)	Moliyalashtirish obyekti va subyektiga ta'sir qilish mexanizmlarini harakatga keltirish vositalari
Ustuvor yo'nalishlari	Agroklasterlarni davlat tomonidan tartibga solishning jamiyat va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan eng muhim yo'nalishlari

Bunday metodologik yondoshuv bizga "agroklaster faoliyatini moliyalashtirish" tushunchasining quyidagi mualliflik ta'rifini berishga asos bo'ldi:

Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish – agroklaster korxonalari joriy va investitsion faoliyatini amalga oshirishni mablag' bilan ta'minlash jarayonidir.

Barcha sohalar kabi agroklasterlarni moliyalashtirish umumiy va xususiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi (1-pacm).

⁸Muallif ishlanmasi.



1-rasm. Agroklasterlarni moliyalashtirish prinsiplari⁹

Umumiy moliyalashtirish prinsiplari barcha tarmoqlar uchun yagona ko‘rinishga ega bo‘lsa, xususiy prinsiplar alohida yo‘nalishdagi agroklasterlar uchun xosdir. Iqtisodiy subyektlarning har biri ma’lum prinsiplar asosida moliyalashtiriladi. Bunday moliyalashtirish prinsiplari agroklasterlar uchun ham amalda qo‘llaniladi.

Iqtisod fanlari doktori, professor T.Malikov va N.Haydarov moliyalashtirishning umumiy prinsiplari doirasida: “minimum xarajat qilib, maksimal samara olish”¹⁰ prinsipini ham keltirib o‘tadilar. Bu prinsip davlat byudjetidan moliyalashtirish jarayonida amal qilsada, lekin agroklasterlarning ham faoliyatini moliyalashtirishda muhim ahamiyatini saqlab qolgan.

Agroklasterlar faoliyati ham maksimal samaradorlikka erishish asosiga tashkil etiladi. Agroklasterlar uchun alohida mezon moliyalashtirishda moliyaviy intizomga rioya qilish mablag‘larni to‘g‘ri va qonuniy sarflashning shartidir.

Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishda moliyaviy resurslar qisqa muddatli yoki uzoq muddatli maqsadlar uchun ajratilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish hozirgi zamon amaliyotining tahlili (Andijon viloyati misolida)** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotining rivojlanish qonuniyatlari, muammolari va ularni hal qilishga oid davlat tadbirlari tahlili, agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish davlat siyosati vazifalari ijrosining tahlili, agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirish tizimi samaradorligini baholash uslubiyoti tahlili amalga oshirilgan hamda agroklasterlar faoliyatini moliyalashtirishni matematik modellashtirish asosida optimallashtirish imkoniyatlari baholangan.

⁹Muallif ishlanmasi.

¹⁰T.S Malikov, N.X. Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. T. Iqtisod-moliya. 2009 y. 166-bet

Andijon viloyatida hozirda 62 agroklaster faoliyat ko'rsatmoqda. Bu agroklasterlarning 15 tasi paxta-to'qimachilik, 14 tasi meva sabzavotchilik, 6 tasi chorvachilik, 2 tasi baliqchilik, 7 tasi g'allachilik, 12 tasi sholichilik, 5 tasi pillachilik va 1 tasi parrandachilik bo'yicha tashkil etilgan. Viloyatda keyingi besh yil mobaynida agroklasterlar soni ortib borish tendensiyasiga ega.

Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ olingan. Bu agroklaster 2018 yil tashkil etilgan. Klaster nizomini qaysi jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari (mablag'lari) hisobiga shakllanganligi quyidagi 3-jadvalda keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2018 yil "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasteri 1 515,2 mln so'm hisobiga tashkil etilgan.

Agroklaster nizomining 12-moddasiga ko'ra, jamiyat nizom fondining 15 foizi miqdorida zaxira fondi shakllantiriladi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarining qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda jamiyatning ustav fondidagi ulushni sotib olish uchun mo'ljallangan. 2022 yilgan kelib "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasteri nizom fondi katta o'zgarishga ega bo'ldi. 2022 yilda "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasterining nizom jamg'armasi 39 287, 8 mln so'mni tashkil etmoqda (2-jadval).

2-jadval

2018 - 2022 yillarda "Xo'jaobod Fayz-M" MChJ agroklasteri Nizom fondining shakllanishi¹¹

mln. so'mda

№	Ta'sischilarning ismi, familiyasi, otasining ismi	2018 yildagi ta'sischi badali	2022 yildagi ta'sischi badali	Farqi
1.	Zokirov Farrux Latipjonovich	421,3	25695,9	25274,6
2.	Zokirov Farxodjon Latipjonovich	388,6	2678,6	2290,0
3.	Zokirov Rustamjon Latipjonovich	705,3	10913,3	10208,0
	Jami	1515,2	39287,8	37772,6

Mamlakatimizda agroklasterlarni shakllantirishda aniq me'yor Nizom (Ustav) fondini shakllantirish ishlab chiqilmagan. Shuni hisobga olib bizning taklifimizga ko'ra, agroklasterlar faoliyatini dastlab shakllantirishda aniq nizom fondi me'yori belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu me'yor agroklaster uchun faoliyatni samarali tashkil etish uchun zamin yaratib beradi.

2018 yildan 2023 yilgacha Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Fayz-M" MChJning faoliyatini moliyalashtirish holatini 3-jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkin. Agroklaster asosan o'z ixtiyoridagi mablag'lar va bankning uzoq muddatli kreditlari hisobiga faoliyatini moliyalashtirmoqda. O'tgan davr mobaynida ishlab chiqarilgan tovarlar assortimenti va hajmi bir necha barobarga ortgan. Agroklaster davlat byudjeti dotatsiyasi, subsidiyasi va xorijiy investitsiyalar

¹¹Muallif ishlanmasi.

hisobiga faoliyatini moliyalashtirmagan. Bu esa agroklasterning faoliyatida majburiyatlarni kamaytiradi hamda moliyalashtirilgan mablag‘larning salmoqli qismi agroklasterning ixtiyorida qolishiga sabab bo‘ladi. 2018 yilga nisbatan 2023 yilda “Xo‘jaobod Fayz-M” agroklasteri o‘z ixtiyoridan 320707,5 mln so‘m ko‘p mablag‘ni moliyalashtirishga yo‘naltirgan bo‘lsa, uzoq muddatli bank kreditlari hisobiga esa 224314,9 mln so‘m mablag‘ ortig‘i bilan yo‘naltirilgan. Agroklasterning moliyalashtirishning eng asosiy manbalari bo‘lib, korxona taqsimlanmagan foydasi, bankning uzoq muddatli kreditlari hamda asosiy vositalar amortizatsiyasi summolari tashkil etmoqda.

3-jadval

“Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning 2018-2023 yillarda faoliyatni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi¹²

mln. so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						Farqi 2018 yilga nisbatan 2023 yilda
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Korxona ixtiyori-dagi mablag‘lar (taqsimlanmagan foyda)	2228,1	3391,5	6209,9	16329,1	21027,2	32713,3	30485,2
2.	Olingan uzoq muddatli kreditlar	20840,7	14325,8	95284,5	117076,2	245155,6	220349,0	224314,9
3.	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	905,7	862,4	10822,2	26108,4	53163,1	9619, 2	90713,5
4.	Olingan qisqa muddatli kreditlar	0	23891,9	0	0	0	15400,5	15400,5
	Jami	23974,5	18579,7	112316,7	159513,7	319345,9	344682,0	320707,5

“Xo‘jaobod Fayz-M” MChJ agroklasteri paxtani to‘liq qayta ishlab uni tayyor mahsulot ishlab chiqarishga moslashgan agroklaster hisoblanadi. Klaster deyarli barcha zanjirli ishlab chiqarish sikliga ega bo‘lib, uni shakllantirishda tijorat banklaridan olingan uzoq muddatli kreditlarning o‘rni juda muhimdir. Klaster hozirda matoni bo‘yash sehiga ega emas. Bunday holat Andijon viloyatidagi deyarli barcha klasterlarda uchraydi. Lekin Xo‘jaobod tumanidagi “Samo” MChJ bu masalada klasterga yordam beradi. Bizningcha agar agroklasterlarda zanjirdagi bironta ishlab chiqarish liniyasini tashkil etish uchun davlat subsidiyasi va imtiyozli kreditlaridan foydalanish tizimini yaratib berish darkor. Agroklasterlarga bunday davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak berilishi, har bir klasterning to‘laonli ish yuritishiga olib keladi. Qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi va bu o‘z navbatida davlat byudjetiga soliq tushumlarining ko‘payishiga zamin yaratadi.

¹²Muallif ishlanmasi.

2018-2023 yillardagi “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning moliyaviy natijalarini shakllanish ko‘rsatkichlari 4-jadval ma’lumotlarida keltirilgan.

4-jadval

“Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning 2018-2023 yillik moliyaviy natijalarini shakllanish ko‘rsatkichlari¹³

mln.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						Farqi 2018 yilga nisbatan 2023 yilda
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum	53461,3	64606,8	88592,7	199246,9	248611,1	207333,4	153870,0
2.	Sotilgan mahsulotning tannarxi	47450,9	59843,4	82060,8	167367,4	185336,4	161426,1	113975,2
3.	Mahsulot sotishdan yalpi foyda	6010,4	4763,5	6531,9	31879,5	63274,6	45907,3	39896,9
4.	Davr xarajatlari	3607,3	4359,4	638,9	28762,8	30161,7	25914,6	22307,3
5.	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	2403,0	404,1	5893,0	3116,7	33112,9	23725,6	21322,6
6.	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	48,6	5162,1	6797,0	1585,6	893,3	108,4	59,8
7.	Moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlar	1678,7	4400,7	10371,6	1019,8	22292,4	17500,6	15821,9
8.	Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar)	773,0	1165,4	-4524,8	3682,5	11713,7	6333,4	5560,4
9.	Foyda solig‘i	0	206,5	0	209,7	241,1	490,2	490,2
10.	Hisobot yilidagi sof foydasi (zarari)	773,2	958,9	-3616,7	3472,8	11472,5	5843,2	5070,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, agroklaster 2018 yilga nisbatan 2023 yilda sof foydani 5070.0 mln so‘mga oshirgan. Bunga klaster ishlab chiqarish hajmini bir necha barobarga oshirish evaziga erishgan.

Faqat 2020 yilda agroklaster hisobot yilini 3616.7 mln so‘m zarar hisobiga yakunlagan bo‘lib, bu pandemiya bilan bog‘liq holatdir. Chunki klaster to‘liq ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Italiyaga eksport qiladi va Italiyada 2020 yilda pendemiyaning kuchayishi klasterning maxsulotlari eksportiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bizningcha bunday holatlarda agroklasterlarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab – quvvatlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu davlatning imtiyozli kreditlari va subsidiyalari hisobiga amalga oshirilishi kerak.

Paxta to‘qimachilik klasterlarining moliyalashtirish tizimi biroz murakkab bo‘lib, paxtani yetishtirishdan tortib undan sifatli kiyim-kechak tayyorlashgacha bo‘lgan jarayonlarni mablag‘ bilan ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

¹³Muallif ishlanmasi.

“Xo‘jaobod Fayz - M” MChJ agroklasterining 2018-2023 yillardagi paxtani etishtirish xarajatlaridan tortib to uni tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish jarayonigacha xarajatlarini moliyalashtirishga sarflangan mablag‘larni harakatini 6-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarda ko‘rishimiz mumkin.

5-jadval

“Xo‘jaobod Fayz - M” MChJning 2018-2023 yillik moliyaviy natijalarini shakllanish ko‘rsatkichlari¹⁴

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						Farqi 2018 yilganisbat an 2023 yilda
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Paxta etishtirish xarajatlari	33411	37713	60061	137202	158027	129685.1	96274
2.	Paxtani qayta ishlash xarajatlari	6905	8540	8692	10772	11703	12564	5659
3.	Kalava ip ishlab chiqarish xarajatlari	3260	5850	6250	8360	8620	8723	5463
4.	Kalava ipdan mato to‘qish xarajatlari	885	1450	1250	3950	2040	3256	2371
5.	Matoni bo‘yash xarajatlari	1750	3970	3350	4550	2760	4614	2864
6.	Kiyim-kechak tayyorlash umumiy xarajatlari	1240	2320	2458	2533,4	2186,4	2684	1444
7.	Klaster bo‘yicha umumiy xarajatlar jami	47451	59843	82061	167367	185336	161426.1	113975.2
8.	Sotish narxlari	53461,3	64606,9	88592,8	199246,9	248611,1	207333.4	153872.1
9.	Yalpi foyda	6010,4	4763,4	6531,9	31879,5	63274,6	45907,3	39896,9

Moliyalashtirish jarayonini samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘lib, rentabellik hisoblanadi. Moliyalashtirishning rentabelligi sarflangan har bir so‘m mablag‘ning qaytimini qanchalik hajm jihatdan kattaligiga bog‘liqdir. Moliyalashtirish bu barcha agroklaster tomonidan sarflangan mablag‘lar ko‘lami. Bu barcha xarajatlarning muhimligi va agroklasterning faoliyatining ajralmas qismi, lekin agroklaster sarflanayotgan mablag‘larning o‘z vaqtida amalga oshirilishiga va daromad olishga faoliyatni yo‘naltirishiga erishish uchun kurashadi.

2018-2023 yillardagi “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJ agroklasterining moliyaviy samardorlik ko‘rsatkichlari holatini 7-jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin.

Agroklasterning 2018-2021 yillardagi moliyaviy holatining samardorlik ko‘rsatkichlari past darajada bo‘lsa, lekin 2022 va 2023 yillarda moliyaviy holatining samardorlik ko‘rsatkichi yuqori natijani tashkil etmoqda.

¹⁴Muallif ishlanmasi.

**“Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning 2018-2023 yillik moliyaviy holatning
samaradorlik ko‘rsatkichlari¹⁵**

foizda

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						Farqi 2018 yilga nisbatan 2023 yilda
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning rentabelligi	13	7,9	8,0	19	34,1	28,4	15,4
2.	Asosiy faoliyatdan olingan foydaning sotilgan mahsulotga nisbatan rentabelligi	5,1	0,6	7,2	1,8	19	15	9,9
3.	Umumxo‘jalik faoliyatdan olingan foydaning sotilgan mahsulotga nisbatan rentabelligi	1,6	1,9	-	2,2	6,3	4	2,4
4.	Sof foydaning sotilgan mahsulotga nisbatan rentabelligi	1,6	1,6	-	2,1	6,2	3,6	2

Umumiy olib qaralganda agroklasterning samaradorlik ko‘rsatkichlari klaster faoliyati uchun juda past bo‘lib, faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bizningcha quyidagilarni amalga oshirish dardkor:

agroklasterni aylantirish mablag‘larining xarakatchanligini oshirish uchun revolver kreditdan foydalanish maqsadga muvofiq;

faoliyat turlarini diversifikatsiyalash uchun imtiyozli shartlarda davlat kreditlari va alohida faoliyatlarni yanada rivojlantirish uchun subsidiyalarni jalb etish talab etiladi.

7-jadvalda “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning aktivlarini 2018-2023 yillarda shakllanishi keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2018 yilga nisbatan “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning 2023 yilda asosiy vositalari 1154.8 foizga yoki o‘n bir barobarga ortmoqda. Jami aktivlar salmog‘i ham 2018 yilga nisbatan 2023 yilda 1113 foizga yoki o‘n bir barobarga ortmoqda. Bu klasterning o‘tgan besh yil mobaynida aktivlarini salmoqli ravishda ortishiga harakat qilganligini va barcha moliyaviy resurslar aktivlarni kengaytirishga yo‘naltirganligini anglatadi. Agroklasterning tovar-moddiy zaxiralari hajmi xam 2018 yilga nisbatan 2023 yilda 1078 foizga yoki o‘n barobarga ortmoqda. Bu asosan agroklasterning 2018 yilga nisbatan 2020 yilda yer maydoning kengayishi, yetishtirilgan paxta hajmining ortishi hisobiga agroklasterni tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining ortishi evaziga ro‘y bermoqda. “Xo‘jaobod Fayz-M” MChJning 2018 yilga nisbatan 2023 yilda debitorlik qarzlari hajmi keskin ortmoqda. 2018 yilda debitorlik qarzdorlik

¹⁵Muallif ishlanmasi.

1028,2 mln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2022 yilda bu koʻrsatkich 14666,8 mln soʻmni tashkil etgan yoki 2018 yilga nisbatan 2023 yilda 30.5 foizga ortgan. Bu asosan sotilgan tovarlar uchun toʻlovlarning oʻz vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida yuzaga kelgan.

7-jadval

“Xoʻjaobod Fayz-M” MChJning 2018-2023 yillarda aktivlarining shakllanish koʻrsatkichlari¹⁶

mln. soʻmda

№	Koʻrsatkichlar	Yillar						Farq 2018 - 2023 (foizda)
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Asosiy vositalar	24594,7	25754,7	31009,7	127323,6	268657,5	284025,5	1154.8
2.	Tovar - moddiy zaxiralar	18163,0	25560,7	56642,9	72117,8	74706,9	195924,3	1078
3.	Debitorlik qarzlari	1028,2	13404,1	64847,3	242891,8	14666,8	31461,9	30.5
4.	Pul mablagʻlari	0,3	20,6	104,6	361,4	2963,6	762,9	-
	Jami	42880,6	63877,8	141782,2	416586,2	382820,6	477268,9	1113

Biz agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini tahlil etish jarayonida bu jarayonni murakkab ekanligini koʻrib oʻtdik. Moliyalashtirish jarayoni agroklastlar faoliyatni samarali tashkil etishga yoʻnaltirishi shart.

Dissertatsiyaishining “Oʻzbekiston Respublikasida agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yoʻllari” deb nomlangan uchinchi bobida Oʻzbekistonda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yoʻnalishlari, agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish amaliyotining samarali mezonlarini ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan.

Ishda agroklastlar faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish yoʻllariga oid qator takliflar ishlab chiqildi va ular Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 10 maydagi 05/04-04-222-sonli maʼlumotnomasi bilan maʼqullandi:

1. Fyuchers shartnomalari asosida paxta xom ashyosini yetishtirish va yigʻim-terimi uchun agroklastlarni davlat maxsus jamgʻarmasi hisobidan qisqa muddatli, tegishli shartlardagi kredit asosida moliyalashtirishga oid taklif Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 dekabrda “Qishloq xoʻjaligida erkin bozor munosbatlarini yanada rivojlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-205-sonli Farmonida inobatga olingan.

8-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi agroklastlarini fyuchers shartnomalari asosida paxta xom ashyosini yetishtirish va yigʻim-terimi uchun davlat maxsus

¹⁶Muallif ishlanmasi.

jamg'armasi hisobidan qisqa muddatli, tegishli shartlardagi kredit asosida moliyalashtirish tadbirlari haqida ma'lumot¹⁷

T/r	Ko'rsatkichlar	2023 y.	2024 y.	2025 y. (reja)	2026 y. (prog)	2027 y. (prog)
1.	Agroklastlar soni, ta	245	263	279	286	292
2.	Biriktirilgan fermer xo'jaliklari soni, ta	15600	17860	18380	18575	18780
3.	Yaratilgan ish o'rni, ming ta	25,3	27,9	30,6	32,4	36,8
4.	Eksport hajmi, mln.AQSh doll.	500	525	560	590	625
5.	Agroklastlarning paxta xom ashyosini yetishtirish bo'yicha fyuchers shartnomalari: soni, ta	-	-	12340	13560	15240
	qiymati, trln.so'm	-	-	13,2	14,9	15,5
6.	Agroklastlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotishdan tushumi, trln.so'm	134,7	152,1	159,2	163,3	169,1
7.	Agroklastlarning paxta xom ashyosini etishtirish va yig'im-terimi uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ajratilgan kredit resurslari, mlrd.so'm	-	-	720,0	850,0	1200,0

Darxaqiqat, qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, paxta-to'qimachilik klasterlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, tarmoqda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida 2025 yil hosildan boshlab paxta xom ashyosini etishtirish, paxta yig'im-terimi va xaridini Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish amaliyotiga o'tildi.

Mazkur taklifning inobatga olinishi natijasida 2025 yil hosildan boshlab agroklastlarga paxta xom ashyosini etishtirish va yig'im-terimi uchun Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit resurslari hisobidan har yili 720 mlrd.so'm mablag' imtiyozli shartlarda taqdim etiladigan bo'ldi.

